

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Turkiy tillarda unlilar tizimi

(o‘zbek, uyg‘ur, turk va qozoq tillari misolida)

Abdimo‘minova Dildora Oybekovna

Hamroyeva Maftuna Norboy qizi

To‘laganova Mehriniso Musurmonovna

TerDU o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek, qozoq, uyg‘ur va turk tillaridagi unli fonemalar haqida ma’lumot berilgan. Singarmonizm hodisasi tillar kesimida misollar bilan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: fonetika, til, lahja, singarmonizm, palatal, labial, tanglay, bo‘g‘in, vokal, fonema, uyg‘unlashuv.

Turkiy tillar bir oilaga mansub bo‘lgan til va lahjalar to‘plami bo‘lib, ular asosan, O‘zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Afg‘oniston, Eron, Tojikistonda, shuningdek, Bolgariya, Ruminiya, Ukraina, Germaniya, Kipr, Shimoliy Makedoniya, Albaniya, AQSh, Saudiya Arabistoni va boshqa bir qancha mamlakatlarda tarqalgan. Turkiy tillar dunyoda 35 dan ortiq til va lahjalarni o‘z ichiga oladi. Turkiy tillar tashqi ta’sir va mintaqaviy farqlarga qaramay, o‘zaro o‘xshashliklar va izohli elementlar saqlab qoladi. Bu tillarning ko‘plab adabiyoti, san’ati va madaniyati mavjud bo‘lib, tarixiy va zamonaviy bosqichlarda rivojlanib kelmoqda.

Fonetika nutq tovushlarining hosil bo‘lish usullarini va akustik xususiyatlarini, bo‘g‘in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. O‘zbek, qirg‘iz, uyg‘ur va turk tillari bir oilaga mansub bo‘lishsa-da, fonetik jihatidan o‘zaro farq qiladi. Dastlabki tafovutni harflar misolida ko‘rishimiz mumkin:

O‘zbek tili	Uyg‘ur tili	Turk tili	Qozoq tili
Aa	Aa	Aa	Aa
Bb	Bb	Bb	Bb
Dd	-	Dd	Dd
Ee	-	Ee	Ee
Ff	-	Ff	Ff
Gg	-	Gg	Gg
Hh	-	Hh	Hh
Ii	-	Ii	Ii
Jj	-	Cc	Jj
Kk	Kk	Kk	Kk
Ll	Ll	Ll	Ll
Mm	Mm	Mm	Mm
Nn	Nn	Nn	Nn
Oo	-	Oo	Oo
Pp	-	Pp	Pp

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Qq	Qq	Qq	Qq
Rr	Rr	Rr	Rr
Ss	Ss	Ss	Ss
Tt	Tt	Tt	Tt
Uu	-	Uu	Uu
Vv	Vv	Vv	Vv
Xx	Xx	-	-
Yy	Yy	Yy	Yy
Zz	Zz	Zz	Zz
O‘o‘	-	Öö	-
G‘g‘	-	Ğğ	-
Shsh	Shsh	Şş	-
Chch	Chch	Çç	-
Ngng	-	-	-
-	Dzdz	-	-
-	Ww	-	-
-	-	Üü	Üü
-	-	İi	-
-	-	-	Āā
-	-	-	Ōō
-	-	-	-
29ta	18ta	29ta	26ta

O‘zbek tilida unli fonemalar labning ishtirokiga ko‘ra lablangan(u, o‘) va lablanmagan(i, e, a, o), hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra old qator(i, e, a), orqa qator(o, u, o‘) kabi guruhlarga ajratilsa turk tilida unli tovushlar ünlü, sesli, vokal deb ataladi. Ular:

A. Hosil bo‘lish o‘rni va tilning holatiga ko‘ra:

orqa qator unlilar(kalin ünlüler, kalin sesliler) – a, 1, o, u	old qator unlilar yoki ingichka unlilar (ince ünlüler, ince sesliler) – e, i, o, ü
--	--

B. Lablarning ishtirokiga ko‘ra:

lablanmagan unlilar yoki tekis unlilar (düz ünlüler, düz sesliler) - a, e, 1, i	lablangan unlilar yoki yumaloq unlilar (yuvarlak ünlüler , yuvarlak sesliler) – o, ö, u, ü
---	--

C. Og‘izning ochilish holatiga ko‘ra:

keng unlilar (geniş ünlüler, geniş sesliler) - a, e, o, ö) tor unlilar (dar ünlüler, dar sesliler) - 1, i, u, ü
---	--

Turk tilida “a” harfi qalin va ingichka tovushni ifoda etadi: kat so‘zida qalin, dikkât, hâl so‘zlarida esa ingichka tovushdir. E harfi ochiq va yopiq tovush sifatida talaffuz qilinadi. Jumladan, dede so‘zida ochiq, deli so‘zida esa yopiq tovush tarzida keladi. Uning yopiq shakli o‘zbekchadagi e tovushi kabitidir. *Qozoq tili* esa boy fonetik tizimga ega turkiy tildir. Bu tilda 9 ta

unli tizim mavjud bo‘lib, ular old va orqa unlilarga bo‘linadi. Old unlilarga i, e, ā, ō, orqa unlilarga esa u, o, a, ı, y kiradi. Unli tovushlar uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega, ya’ni so‘z ichidagi unlilar oldingi yoki orqa tomonga mos keladi. Qozoq tilida Yy harfi unli fonema sifatida ishlatsa, o‘zbek, uyg‘ur, tukr tillarida undosh harf sifatida qabul qilingan. Yuqorida ko‘rganimizdek, uyg‘ur alifbosida esa harflar soni ko‘p emas jami 18 ta. Harflar o‘z tartibiga ega bo‘lib, M.Qoshg‘ariy tomonidan ko‘rsatilgan alifbo quyidagi tartibdadir; a, w, x, v, z, k, y, q, dz, m, n, s, b, ch, r, sh, t, l. Mazkur tovushlarga “a” qo‘shish bilan ularning nomi kelib chiqadi (a, wa, xa, va, za...)

Turk va qozoq tilida ham o‘zbek tilidagidek singarmonizm (tovushlarning uyg‘unlashuvi) hodisasi mavjud. Turk tilida tanglay va lab uyg‘unligi büyük ve küçük unlü uyumu deyiladi. Turkiy singarmonizm unlilar tizimida ham, undoshlar tizimida ham amal qiladi. Unlilar uyg‘unligi ikki xil: ular tanglay uyg‘unligi (büyük unlü uyumu) va lab uyg‘unligi (küçük unlü uyumu)

1. Tanglay uyg‘unligi. Turk tili fonetikasida asosiy unli uyg‘unligi deb nomlangan ushbu qonunga muvofiq qo‘shimcha unlisi o‘zakdagini tabiatini (qalin yoki ingichkaligi)ga ko‘ra moslashadi. O‘zakda old qator unlilar kelgan bo‘lsa, qo‘shimchada ham shunday unlilar qatnashadi, ya’ni bir so‘zning birinchi bo‘g‘inida qalin unli (a, i, o, u) bor bo‘lsa, qolgan bo‘g‘inlardagi unlilar ham qalin, ingichka unli (e, ı, ö, ü) bor bo‘lsa, qolgan bo‘g‘indagi unlilar ham ingichka bo‘ladi: boyunduruk, ayak, burun, dalga, gelincik, vergi kabi. Agar o‘zakda orqa qator unlilar kelgan bo‘lsa, qo‘shimchada ham shunday unlilar ishtirok etadi: elim, evim, kilimden, kesik, ilgeksiz kabi. O‘zbek tilida noqardosh (tojik) tillar chatishmasi sababli tanglay uyg‘unligi mavjud emas.

2. Lab uyg‘unligi. Turk tili fonetikasida kichik unli uyg‘unligi deb nomlangan ushbu qonunning ikki jihatni bor:

a) bir so‘zning birinchi bo‘g‘inida tekis unli (düz ünlü - a, e, ı, i) bo‘lsa, undan keyin kelgan bo‘g‘inlarda ham tekis unli (a, e, ı, i) bo‘ladi: gelecek, ayak, anlama, dinleme, kirlangiç, beşik kabi

b) bir so‘zning birinchi bo‘g‘inida yumaloq unli (yuvarlak ünlü - o, ö, u, ü) bo‘lsa, undan keyin kelgan birinchi bo‘g‘inda tor yumaloq (dar yuvarlak ünlü - u, ü) yoki keng tekis unli (geniş duz ünlü - a, e) bo‘ladi: boyunduruk, okuma, gözlük, bozukluk kabi. Boshqacha aytganda, ushbu qoida so‘zning oxirgi bo‘g‘inidagi unliga bog‘liq. Agar oxirgi bo‘g‘in unlisi lablangan bo‘lsa, qo‘shimcha unlisi ham lablanadi. Agar oxirgi bo‘g‘in unlisi lablanmagan bo‘lsa, qo‘shimcha unlisi ham lablanmagan bo‘ladi: elin, bahçenin, öncelik, okulun, kabi.

Qozoq tili singarmonizm ham qolgan tillarniki kabi vokal tovushlarning bir-biriga tasiri natijasida kelib chiqadigan hodisadir ya’ni birinchi vokal ochiq bo‘lsa, keyingi vokallar ham ochiq bo‘lishi mumkin. Masalan, kitap (kitob) so‘zida a fonemasi bo‘lganligi sababli, qo‘shimchalar ham a ga mos keladigan shaklda keladi: kitap – kitaplar.

Uyg‘ur tilida esa singarmonizm juda muhim rol o‘ynaydi va tilning singarmonizm xususiyatlari quyidagilardir:

- Labial singarmonizm: Bu singarmonizm turida so‘zdagi unlilarning labiallashib yoki labaillashamasligiga qarab, uning so‘z oxiridagi qo‘shimchalar ham labiallashadi yoki labillashamaydi

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

- Palatal singarmonizm: Bu singarmonizm turida so‘zdagi unlilarning palatal (tilning old qismi bilan hosil bo‘lgan) yoki palatal bo‘lmasligiga qarab, uning so‘z oxiridagi qo ‘shimchalar ham palatallahadi yoki palatal bo‘lmaydi.

Tilshunoslikda bo‘g‘inlar fonetika bo‘limida o‘rganilib, *qozoq tilida* bo‘g‘inlar qatnashuvchi tovushlar qatorida tinch tovushlar bo‘lmasligiga ko‘ra ochiq (ma, ba), qatnashuvchi tovushlardan biri yoki bir nechta tinch tovushlar bo‘lishiga ko‘ra yopiq bo‘g‘inlarni hosil qiladi (katta, kitob). Shuningdek, bo‘g‘inlar ko‘plab tovushlardan iborat bo‘lishi mumkin, masalan, bir yoki bir nechta undosh va unli tovushlar birlashishi.

Ochiq bo‘g‘inli so‘zlar	Yopiq bo‘g‘inli so‘zlar
asa	tov
Ona	bar
keli	tap
sala	buz
dana	dam

O‘zbek tilida esa bo‘g‘inlar 2 ga bo‘linadi: ochiq va yopiq bo‘g‘in. Masalan, maktab so‘zini yopiq bo‘g‘in namunasi deya olamiz, sababi bo‘g‘inlarga ajratganimizda ular undosh harflar bilan tugayapdi: mak-tab. Ochiq bo‘g‘in esa uning aksi bo‘lib unli harflar bilan tugashi kerak: bo-la, la-ti-fa, ke-ma.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlamog‘imiz joizki, ushbu turkiy tillardagi singarmonizm hodisalari, tovushlarning bir-biriga ta’siri va bo‘g‘inlarning strukturalari orqali tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Bu xususiyatlar tillarning fonetik va morfologik xususiyatlarini belgilashda yordam beradi, shu bilan birga, tillarning xususiyatlarini o‘rganish uchun zarur asos yaratadi. O‘zbek, uyg‘ur, turk va qozoq tillarini o‘zaro solishtirganda, ularning farqli va o‘xshash jihatlarini ko‘rishimiz mumkin. Biroq bu tillar aynan bir oilaga mansubligi uchun ham o‘xshashliklar tafovutlarga nisbatan ko‘pdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dadaboyev H, Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Toshkent - 2015
2. Abdurasulov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi, “Fan” nashriyoti. Toshkent - 2004
3. Rafiyev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi(o‘quv qo‘llanma). Toshkent – 2004
4. Shabanov J, Hamidov X. Turk tilining imlo qoidalari. Toshkent – 2010
5. Sodiqov Q. Ajdodlar bitigi. “Fan” nashriyoti. Toshkent – 1990

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

6. Aliyev A, Sodiqov Q . O‘zbek adabiy tili tarixidan.
“O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 1994
7. Mahmudov N. Yozuv tarixidan qisqacha lug‘at ma’lumotnomasi. Toshkent -1990
8. Qayumov A, Sodiqov Q, Otaxo‘jayev A, Is’hoqov M. Qadimgi yozma yodgorliklar. “Yozuvchi” nashriyoti. Toshkent - 2000
9. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalqmerosi nashriyoti – 1993
10. Xudoyberanova Z, Hamidov X. Turk tilining nazariy grammatikasi. Toshkent – 2015